



“PROSPECTS AND OPPORTUNITIES FOR INCLUSIVE TEACHING IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS”

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
AND PRACTICAL CONFERENCE**



2025-YIL 2-3 MAY

International Scientific and Practical Conference
PROSPECTS AND OPPORTUNITIES FOR INCLUSIVE TEACHING IN
HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS

May 2-3, 2025, Samarkand, Uzbekistan
Conference Proceedings

JA Inkwell Publishing House
Arizona, USA

**“OLIV TA’LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA’LIM ISTIQBOLLARI VA
IMKONIYATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

2025-yil 2-3 may

**CONFERENCE PROCEEDINGS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE “PROSPECTS AND OPPORTUNITIES FOR
INCLUSIVE TEACHING IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES
AND SOLUTIONS”**

May 2-3, 2025

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ “ПЕРСПЕКТИВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ
ИНКЛЮЗИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ”**

2-3 май 2025 г.

Samarkand 2025

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE PROSPECTS AND OPPORTUNITIES FOR INCLUSIVE TEACHING IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS

Prospects and Opportunities for Inclusive Teaching in Higher Education: Challenges and Solutions. Conference Proceedings (2nd part). JA Inkwell Publishing, May 2-3, 2025, Samarkand, Uzbekistan.

Uzb: “Oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim istiqbollari va imkoniyatlari: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami (2-qismi), 2025-yil 2-3-may - S.: JA Inkwell Publishing, 2025.

Members of the Editorial Board:

Bakhodir Kholikov

(Chairman)

Prof., Dr., Rector of Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Umid Jumanazarov

(Member of Ed. Board)

Prof., Dr., Vice-Rector for Academic Affairs of Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Azamat Kurakhmedov

(Member of Ed. Board)

Prof., Dr., Vice-Rector for Youth and Spirituality of Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Otabek Gaybullayev

(Member of Ed. Board)

Prof., Dr., Vice-Rector for Science and Innovations of Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Nafisa Nasrullaeva

(Member of Ed. Board)

Prof., DSc., Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Gulnoza Boltakulova

(Resp. Ed.)

Assoc. Prof., Dr., Head of the Chair at Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Begzod Pulatov

(Member of Ed. Board)

Dean of English Faculty at Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Javokhirkhon Nasrullaev

(Exec. Sec.)

Senior Lecturer at the Department of Lexicology and Stylistics of English at Samarkand State Institute of Foreign Languages (Uzbekistan)

Copyright © 2025

by JA Inkwell Publishing House,

Samarkand State Institute of Foreign Languages

All rights reserved

Published by JA Inkwell Publishing.

Arizona, USA

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
PROSPECTS AND OPPORTUNITIES FOR INCLUSIVE TEACHING IN HIGHER
EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS**

ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA QUTLOV

Bugungi kunda jamiyatimizda alohida ehtiyojli bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi uchun qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq talabalarga teng shart-sharoitlar yaratish uchun, inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Shunga ko'ra O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolalarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi, ta'lim-tarbiya olishlariga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi davrida butun dunyoda sog'lom odamlar va sog'ligida muammolari bo'lgan shaxslar auditoriyada birgalikda ta'lim olish uchun innovatsion ta'lim platformalari asosida o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni tadbiq etish va o'zlashtirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Jahon ta'lim amaliyotida bu yo'nalish inklyuziv ta'lim deb ataladi, O'zbekiston Respublikasi o'quv jarayoni amaliyotiga ham inklyuziya kirib keldi.

Alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash mamlakatimizning asosiy vazifalaridan biridir. Bugun jamiyatimiz o'z oldiga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu jarayonning barcha bo'g'inlarida ularning to'laqonli ta'lim olish imkoniyatini amalda qo'llash vazifasini qo'ygan. Bizning fikrimizcha, bu vazifani amalga oshirishning eng maqbul va samarali yo'nalishi aynan inklyuziv ta'limdir. Inklyuziv ta'lim - bu tirik organizm, tirik jarayon bo'lib, u o'qituvchilar va otaonalar tomonidan o'quv jarayoniga ijodiy yondashishni nazarda tutadi. Zero, har bir bola individual yondashuvni talab qiladi, har kim bilim olish va jamiyatda o'z qobiliyatini e'tirof etish huquqiga ega"dir.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, biz mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning to'laqonli turmush tarzini olib borishlariga, faol hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtirok etishlari, shuningdek fuqarolik majburiyatlarini bajarishga ko'maklashuvchi mamlakatimizda inklyuzivlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan siyosatni zamonaviy voqelikdan kelib chiqqan holda dolzarb va muhim deb hisoblaymiz.

Xususan, O'zbekistonda inklyuziv ta'lim istiqbollari belgilashda "Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim istiqbollari va imkoniyatlari: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur konferensiya to'plamiga jami tushgan maqolalar soni 300 taga yaqin bo'lib, shundan 50 dan ortig'i xorijiy maqolalardir. Bugungi xalqaro anjumanda xorijiy davlatlardan, xususan Tojikiston, Qozoqiston, Qirg'iziston, Rossiya, Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Janubiy Koreya, Yaponiya, Italiya, Turkiya, AQSH kabi mamalakatlardan yigirmaga yaqin xalqaro universitetlar reytingida munosib o'ringa ega xorijiy OTMLar vakillari hamda Respublikaning OTM lari hamda ilmiy markazlaridan ellikka yaqin vakillarning o'z tadqiqotlari va xorijiy tajribalari bilan ishtiroki kutilmoqda. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning zarurati, ushbu ta'lim shaklini joriy etishda mavjud muammo va to'siqlarni aniqlash va samarali yechimlarni ishlab chiqish, inklyuziv ta'limda ilg'or usullarni joriy etish orqali barcha talabalarga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun teng imkoniyat yaratish hamda ulardagi muammo va yechimlar kabi masalalar muhokamasi anjumanning maqsad va vazifasini tashkil etadi.

O'ylaymanki, ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilinayotgan dolzarb masalalar o'z yechimini topadi. Anjuman so'nggida mutaxassislar tomonidan bildirilgan takliflar va tavsiyalar bugungi kun inklyuziv ta'lim sifatini oshirishiga xizmat qilishiga ishonch bildiraman.

Anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilab, ishtirokchilarga, xususan xorijiy mamlakatlardan va respublikamizning oliy ta'lim muassasalaridan tashrif buyurgan mehmonlarimizga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

*SamDCHTI rektori
f.f.f.d. (PhD), dotsent
B.Xolikov*

**INKLYUZIV TA'LIM: ZARURAT,
TENDENSIYA, ISTIQBOL**

**INCLUSIVE EDUCATION: NECESSITIES,
TRENDS, AND FUTURE PROSPECTS**

**ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
НЕОБХОДИМОСТЬ, ТЕНДЕНЦИИ И
ПЕРСПЕКТИВЫ**

NEMIS VA O'ZBEK MAQOLLARINING STRUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI.

Sodiqov Lazizjon Musa o'g'li
SamDCHTI tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi maqollar struktur (tuzilish) va semantik (mazmun) jihatdan tahlil qilinadi. Turli madaniy kontekstlarda shakllangan maqollar orqali ikki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va tafakkur tarzidagi o'xshashlik va tafovutlar aniqlanadi. Tahlil jarayonida maqollar morfosintaktik tuzilishi, majoziy ma'nosi hamda ularning ijtimoiy-kommunikativ vazifalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maqollar, struktur tahlil, semantik tahlil, nemis tili, o'zbek tili, lingvokulturologiya.

Maqollar – xalq og'zaki ijodining yuksak namunasi bo'lib, ular har bir millatning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Har bir til o'ziga xos obrazlar va metaforalar orqali dunyoni talqin etadi. Shuning uchun maqollarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish, ayniqsa, struktur va semantik tahlil qilish til va madaniyat o'zaro munosabatlarini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Tilshunoslikda maqollar tadqiqini o'rganish uzoq tarixga borib taqaladi. Har bir millat bor ekan, shu xalqning tili, dini, urf odatlari qadrlanadi va avloddan avloda o'tqaziladi. Ushbu maqolamizda biz qardosh bo'lmagan ikki tildagi maqollarning struktur va semantik tahlilini ko'rib chiqamiz.

O'zbek maqollari odatda ikki qismlik (binar) tuzilishga ega bo'lib, ular parallel qurilish va ritmik simmetriyaga ega:

- Yaxshilik qil, kunda chiq.
- Mehnat qilgan – to'yadi, dangasa – quyaydi.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek maqollarida ritm va qofiya muhim rol o'ynaydi. Ular ko'pincha fe'lli gap shaklida bo'ladi.

Nemis maqollari ham ko'pincha ikki qismlik bo'lib, biroq ularning sintaktik tuzilishi o'ziga xos grammatik qoidalarga bo'ysunadi:

- Wer andern eine Grube gräbt, fällt selbst hinein.
- (Boshqaga quduq qazigan, o'zi unga tushadi.)
- Ende gut, alles gut.
- (Yaxshi yakun – hammasi yaxshi.)

Nemis maqollarida ko'proq ifoda vositasi sifatida subordinatsiya (bo'ysunuvchi gaplar) va determinatsiyalangan birliklar mavjud.

Har ikki tilda mehnat, halollik, sabr-toqat kabi mavzular yoritiladi:

Nemischa maqol	O'zbekcha maqol	Ma'nosi
-----------------------	------------------------	----------------

Ohne Fleiß kein Preis	Mehnatsiz rohat bo'lmas	Mehnatsiz yutuqqa erishib bo'lmaydi
-----------------------	-------------------------	-------------------------------------

Geduld bringt Rosen	Sabr tagi – sariq oltin	Sabr bilan har qanday qiyinchilik yengiladi
---------------------	-------------------------	---

Madaniyatga xos obrazlar orqali farqlar ko'zga tashlanadi:

Nemischa: Ordnung ist das halbe Leben.

(Tartib – hayotning yarimi.) – nemislar uchun tartib va rejaga amal qilish muhim.

- O'zbekcha: Avval o'ylab, keyin so'zla. – o'zbeklarda mulohaza va bosiqlik qadrlanadi
- **Metafora:**

Nemis: Die Katze lässt das Mäusen nicht. (Mushuk sichqon tutishni qo'ymaydi) – tabiati o'zgarmaydi.

O'zbek: It o'z odatini qo'ymaydi.

- **Antonimaziya va antonimiya:**

O'zbek: Yaxshilikni bilmagan – yomonlikni ham bilmas.

Nemis: Gut gemeint ist nicht gut gemacht. (Yaxshi niyat – yaxshi amal emas.)

- **Kinoya:**

Nemis: Ein blindes Huhn findet auch ein Korn.

(Ko'r xo'roz ham ba'zida don topadi) – tasodifiy omad.

O'zbek: Ko'r tovuq ham ba'zida bug'doy topadi.

Maqollar og'zaki nutqda odatda maslahat berish, ogohlantirish yoki o'git tarzida ishlatiladi. Nemis tilida maqollar ko'proq yozma uslubda uchrasa, o'zbek tilida ular tirik, jonli muloqotning ajralmas qismidir.

Nemis va o'zbek maqollarining struktur va semantik tahlili ularning umumiylik va farqlarini ochib beradi. Har ikkala til maqollarida umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va madaniy stereotiplar mujassam. Nemis maqollarida sintaktik murakkablik va qat'iylik, o'zbek maqollarida esa xalqona obrazlilik va ritm ustuvorlik qiladi. Bunday tahlil lingvokulturologik o'zaro tushunishni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bartsch, Renate. Norms and Explanations: On the Nature of Language. (Springer, 1987).
2. Sayfullaeva, N. O'zbek tilida maqollar va ularning lingvistik xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2004.
3. Wolfgang Mieder. Deutsche Sprichwörterkunde: Überblick, Geschichte, Bibliographie, Forschungsbeiträge. Stuttgart: Metzler, 1992.
4. Nazarova, M. Maqollar tili va tafakkur tarzining aks etishi. Samarqand, 2010.
5. Teliya, V. N. Phraseology as a Language of Culture. Moscow, 1996.